O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA IQTISODIY DIVERSIFIKATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Mamarasulov Nozimjon Mamajonovich
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat boshqaruvi akademiyasi
Biznes boshqaruv oliy maktab magistranti
nozimjonmamarasulov88@gmail.com

Annotatsiya*. Ushbu tezis O‘zbekiston mintaqalari iqtisodiyotida tarmoqlar diversifikatsiyasini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashga bag‘ishlangan. Tadqiqotda hududlarning qishloq xo‘jaligi, sanoat, qurilish va xizmatlar sektorlaridagi tarkibiy xususiyatlari tahlil qilinadi. 2025-yil yanvar–sentabr ma’lumotlari asosida hududiy tarmoq konsentratsiyasi Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI), hududiy ixtisoslashuv esa Lokatsiya koeffitsiyenti (LQ) orqali baholanadi. Natijalar hududlar o‘rtasida konsentratsiya va ixtisoslashuv darajasi sezilarli farqlanishini ko‘rsatadi. Shu asosda sanoat konsentratsiyasi yuqori hududlar uchun vertikal diversifikatsiya, agrar ixtisoslashgan hududlar uchun agrosanoat diversifikatsiyasi, xizmatlar ulushi yuqori hududlar uchun raqamli va biznes xizmatlarini rivojlantirish yo‘nalishlari asoslanadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati hududlar uchun bir xil modeldan voz kechib, mavjud iqtisodiy kompetensiyalarga mos differensial diversifikatsiya strategiyasini shakllantirish imkonini berishidadir.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy diversifikatsiya, mintaqaviy iqtisodiyot, tarmoq tarkibi, HHI, LQ, hududiy ixtisoslashuv, sanoat, xizmatlar, investitsiya, innovatsiya, klaster, iqtisodiy barqarorlik, raqobatbardoshlik.*

Аннотация. *Данный тезис посвящён определению приоритетных направлений повышения диверсификации отраслей экономики регионов Узбекистана. В исследовании анализируются структурные особенности регионов в таких секторах, как сельское хозяйство, промышленность, строительство и сфера услуг. На основе данных за январь–сентябрь 2025 года отраслевая концентрация региональной экономики оценивается с использованием индекса Херфиндаля–Хиршмана (HHI), а региональная специализация — посредством коэффициента локализации (LQ).*

Полученные результаты свидетельствуют о существенных различиях между регионами по уровням концентрации и специализации. На этой основе обосновываются такие направления диверсификации, как вертикальная диверсификация для регионов с высокой концентрацией промышленности, агропромышленная диверсификация для регионов с аграрной специализацией, а также развитие цифровых и бизнес-услуг для регионов с высокой долей сектора услуг. Практическая значимость исследования заключается в возможности отказа от единой модели развития регионов и формирования дифференцированных стратегий диверсификации с учётом существующих экономических компетенций каждого региона.

Ключевые слова: *экономическая диверсификация, региональная экономика, отраслевая структура, HHI, LQ, региональная специализация, промышленность, сфера услуг, инвестиции, инновации, кластер, экономическая устойчивость, конкурентоспособность.*

Abstract. *This thesis is devoted to identifying priority directions for enhancing sectoral diversification in the economies of Uzbekistan's regions. The study analyzes the structural characteristics of regions across such sectors as agriculture, industry, construction, and services. Based on data for January–September 2025, sectoral concentration in regional economies is assessed using the Herfindahl–Hirschman Index (HHI), while regional specialization is evaluated using the Location Quotient (LQ). The results demonstrate significant differences among regions in terms of their levels of sectoral concentration and specialization. On this basis, several diversification directions are substantiated, including vertical diversification for regions with high industrial concentration, agro-industrial diversification for agriculturally specialized regions, and the development of digital and business services for regions with a high share of the service sector. The practical significance of the study lies in moving away from a uniform development model for all regions and establishing differentiated diversification strategies that take into account the existing economic competencies of each region.*

Keywords: *economic diversification, regional economy, sectoral structure, HHI, LQ, regional specialization, industry, services sector, investment, innovation, cluster, economic resilience, competitiveness.*

Kirish. Global iqtisodiy beqarorlik, tashqi bozorlar kon'yunkturasining o'zgarishi, texnologik yangilanish va hududlararo raqobatning kuchayishi

mintaqalar iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda tarmoqlar diversifikatsiyasining ahamiyatini oshirmoqda. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarga yuqori darajada bog‘lanib qolishi tashqi iqtisodiy shoklar, narxlar o‘zgarishi va talabdagi tebranishlar ta’sirini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli hududlarning tabiiy-resurs, mehnat, ishlab chiqarish, infratuzilmaviy va investitsion salohiyatidan samarali foydalanish asosida tarmoq tarkibini diversifikatsiyalash barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston hududlari iqtisodiyoti tarkibining bir xil emasligi diversifikatsiya siyosatini ham differensial tashkil etishni talab qiladi. Tadqiqotda aynan shu muammoni aniqlash uchun sektorlar ulushi, HHI va LQ ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism. Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston mintaqalari iqtisodiyotida tarmoqlar diversifikatsiyasining asosiy tarkibiy xususiyatlarini aniqlash hamda hududlarning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi ustuvor diversifikatsiya yo‘nalishlarini ilmiy asoslashdan iborat.

- hududlarning asosiy sektorlar bo‘yicha iqtisodiy tarkibini taqqoslash;
- HHI orqali tarmoq konsentratsiyasini baholash;
- LQ orqali hududiy ixtisoslashuvni aniqlash;
- HHI va LQ natijalarini birgalikda talqin qilish;
- aniqlangan hududiy profillarga mos diversifikatsiya yo‘nalishlarini ishlab chiqish.


Iqtisodiy diversifikatsiya iqtisodiy faoliyat turlarini kengaytirish, tarmoq tarkibini muvozanatlashtirish, risklarni kamaytirish va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmi sifatida qaraladi. Imbs va Wacziarg yondashuvida rivojlanishning dastlabki va o‘rta bosqichlarida diversifikatsiya kuchayishi, yuqori rivojlanish bosqichlarida esa ma’lum darajada qayta ixtisoslashuv kuzatilishi mumkin. Frenken va boshqalar ilgari surgan “related variety” konsepsiyasi esa mavjud iqtisodiy kompetensiyalarga yaqin yangi faoliyat turlarini rivojlantirishning hududiy o‘sish uchun ahamiyatini ko‘rsatadi. Tadqiqotning empirik bazasi 2025-yil yanvar–sentabr oylaridagi hududiy YHM va uning qishloq xo‘jaligi, sanoat, qurilish hamda xizmatlar tarkibidan iborat. $HHI = \Sigma s_i^2$ formula orqali sektor konsentratsiyasi, LQ esa hududdagi sektor ulushining mamlakatdagi tegishli sektor ulushiga nisbati sifatida hisoblangan. LQ>1 hududning tegishli sektorda nisbiy ixtisoslashuvini bildiradi. 2025-yil yanvar–sentabr ma’lumotlari hududlar iqtisodiy tuzilmasining sezilarli farqlanishini ko‘rsatadi. Navoiy viloyatida sanoat hajmi 80,1 trln so‘m, Toshkent viloyatida 54,7 trln so‘m bo‘lgan. Namanganda xizmatlar 27,4 trln so‘mni,

Samarqandda 40,3 trln so‘mni, Toshkent shahrida esa 144,6 trln so‘mni tashkil etgan. Jizzax va Surxondaryoda qishloq xo‘jaligining nisbiy ulushi yuqori.

1-jadval. Hududlar iqtisodiyotining tarmoqlar bo‘yicha tarkibi va HHI indeksi

Hudud	Qishloq xo‘jaligi, %	Sanoat, %	Qurilish, %	Xizmatlar, %	HHI
Sirdaryo	28.9	30.9	7.6	32.5	0.291
Buxoro	28.5	20.6	9.9	36.7	0.295
Andijon	27.3	29.4	6.6	36.7	0.300
Jizzax	37.8	20.0	6.6	35.7	0.314
Namangan	27.2	17.2	8.1	47.5	0.336
Toshkent shahri	0.0	26.3	11.4	62.4	0.471
Navoiy	9.2	74.5	4.0	12.2	0.581

Izoh: HHI — Herfindahl–Hirschman Index, hudud iqtisodiyotidagi tarmoqlar konsentratsiyasi darajasini ifodalovchi indeks.




1-rasm. O‘zbekiston hududlarida tarmoq konsentratsiyasi (HHI)

Hisob-kitoblarga ko‘ra, Sirdaryo (0,291), Buxoro (0,295) va Andijon (0,300) hududlarida HHI nisbatan past. Bu hududlarda asosiy sektorlar o‘rtasidagi taqsimot nisbatan muvozanatli. Jizzax, Xorazm, Qashqadaryo, Toshkent viloyati, Farg‘ona, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Qoraqalpog‘iston Respublikasida HHI 0,314–0,353 oralig‘ida bo‘lib, o‘rta konsentratsiya kuzatiladi. Toshkent shahrida HHI 0,471, Navoiy viloyatida esa 0,581 bo‘lib, konsentratsiya yuqori.

Navoiydagi yuqori HHI asosan sanoat sektorining to‘rtta sektor yig‘indisidagi 74,5 foizlik ulushi bilan bog‘liq. Toshkent shahridagi konsentratsiya esa xizmatlar sektorining 62,4 foizlik ulushi bilan izohlanadi. Mazkur ikki hududning iqtisodiy profili bir-biridan farq qilgani sababli diversifikatsiya mexanizmi ham bir xil bo‘lishi kerak emas. LQ natijalari hududlarning qaysi sektorlar bo‘yicha nisbiy ixtisoslashganini ko‘rsatadi. Navoiyda sanoat LQ=2,532, Toshkent viloyatida sanoat LQ=1,508, Toshkent shahrida xizmatlar LQ=1,469, Namanganda qishloq xo‘jaligi LQ=1,375 va xizmatlar LQ=1,119 ga teng. Bu ko‘rsatkichlar diversifikatsiya strategiyasini mavjud hududiy kompetensiyalarga bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.


Hudud	Q/x LQ	Sanoat LQ	Qurilish LQ	Xizmatlar LQ
Navoiy	0.466	2.532	0.481	0.288
Toshkent viloyati	0.858	1.508	1.030	0.708
Namangan	1.375	0.586	0.969	1.119
Samarqand	1.474	0.588	0.818	1.101
Toshkent shahri	0.000	0.892	1.363	1.469



2-rasm. Namangan viloyati iqtisodiyotining tarmoq tarkibi

Yuqori sanoat konsentratsiyasiga ega Navoiy va Toshkent viloyatlarida vertikal diversifikatsiya, chuqur qayta ishlash, mashinasozlik, elektrotexnika va sanoat xizmatlarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida ajratiladi. Agrar ixtisoslashuvi yuqori Jizzax, Surxondaryo, Buxoro va Qashqadaryoda agrosanoat, oziq-ovqatni qayta ishlash, saqlash, sovutish va logistika qiymat zanjirlarini rivojlantirish mumkin. Xizmatlar ulushi yuqori Toshkent shahri, Namangan, Samarqand va Farg‘ona hududlarida IT, raqamli xizmatlar, fintech, ta’lim, turizm, logistika va biznes xizmatlari yo‘nalishlarini kengaytirish taklif etiladi. Klasterlar va ishlab chiqarish kooperatsiyasi barcha hududlar uchun umumiy mexanizm sifatida ko‘riladi. Ular texnologik va iqtisodiy jihatdan bog‘liq faoliyatlar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirib, yangi iqtisodiy faoliyatlarning shakllanishiga imkon yaratadi.

3-rasm. Hududiy iqtisodiy diversifikatsiyani shakllantirish modeli



3-rasm. Hududiy iqtisodiy diversifikatsiyani shakllantirish modeli

Namangan viloyatida xizmatlar sektorining ulushi 47,5 foiz, qishloq xo‘jaligi 27,2 foiz, sanoat 17,2 foiz va qurilish 8,1 foizni tashkil etadi. LQ ko‘rsatkichlari qishloq xo‘jaligi va xizmatlarda nisbiy ixtisoslashuv mavjudligini ko‘rsatadi. Shu sababli Namangan uchun diversifikatsiyaning istiqbolli yo‘nalishlari xizmatlar sektorida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish, raqamli va biznes xizmatlarini rivojlantirish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash bilan bog‘lanishi mumkin.

Taklif etilayotgan yondashuv uch bosqichga tayanadi: birinchi bosqichda hududning resurs va iqtisodiy salohiyati aniqlanadi; ikkinchi bosqichda LQ orqali ixtisoslashuv va HHI orqali konsentratsiya baholanadi; uchinchi bosqichda aniqlangan profilga mos diversifikatsiya strategiyasi tanlanadi. Natijada mavjud kompetensiyalarni saqlagan holda yuqori qo‘shilgan qiymat, innovatsiya, kooperatsiya va klasterlashuv orqali yangi faoliyatlar shakllantiriladi.

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston hududlarida iqtisodiy diversifikatsiya darajasi va tarmoq ixtisoslashuvi bir xil emasligini ko‘rsatdi. Shu sababli hududiy siyosatda “bir xil model — barcha hududlar uchun” yondashuvidan voz kechish va hududlarning mavjud iqtisodiy kompetensiyalariga mos differensial strategiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

• hududlarning ixtisoslashuviga mos diversifikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish;

• mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli ishlab chiqarishni kengaytirish;

• xizmatlar, raqamli iqtisodiyot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish;

• investitsiyalarni yangi va istiqbolli tarmoqlarga yo‘naltirish;

• hududiy klasterlar va ishlab chiqarish kooperatsiyasini kuchaytirish;

• transport-logistika infratuzilmasini takomillashtirish orqali ichki va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Imbs J., Wacziarg R. Stages of Diversification. American Economic Review. 2003. Vol. 93, No. 1. P. 63–86. DOI: 10.1257/000282803321455160.

2. Frenken K., Van Oort F., Verburg T. Related Variety, Unrelated Variety and Regional Economic Growth. Regional Studies. 2007. Vol. 41, No. 5. P. 685–697. DOI: 10.1080/00343400601120296.

3. Romer P.M. Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy. 1990. Vol. 98, No. 5. P. S71–S102. DOI: 10.1086/261725.

4. Lucas R.E. On the Mechanics of Economic Development. Journal of Monetary Economics. 1988. Vol. 22, No. 1. P. 3–42. DOI: 10.1016/0304-3932(88)90168-7.

5. OECD. Strengthening Regional Policy for Resilient Places. Paris: OECD Publishing, 2025.

6. Asian Development Bank. Uzbekistan: Regional Economic Development Review. Manila: ADB, 2023.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-60-son Farmon. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.